



THE ROLE OF MASS MEDIA IN SHAPING POLITICAL CULTURE

Davron Sobirovich MUITOV

Acting Professor, Department of Political Science

Candidate of Political Sciences

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

Irodakhon Yarmukhamedova

Senior Lecturer, Department of Political Science

Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences

Uzbekistan State World Languages University

Email: Irodaxon1440@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: media, political culture of the individual, information society, civil society, political culture, politically mature person.

Received: 04.03.26

Accepted: 05.03.26

Published: 06.03.26

Abstract: This article analyzes modern trends in the study of political culture and the media. The study highlights the role of political culture in the political processes of society, the importance of forming the political consciousness of citizens, and the role of the media in the political communication system. It also analyzes new forms and methods emerging in the process of disseminating political information as a result of the development of digital technologies, the Internet, and social networks. The article pays special attention to the influence of the media in the formation of political culture in the modern information space, the processes of political socialization, and the issues of information security. According to the results of the study, modern means of communication are an important factor in developing political culture, increasing the political activity of citizens, and strengthening democratic processes.

SIYOSIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

Davron Sobirovich Muïtov

Siyosiy fanlar kafedrası v.b.professori

Siyosiy fanlar nomzodi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Irodaxon Yarmuxamedova

Siyosiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Email: Irodaxon1440@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: OAV, shaxs siyosiy madaniyati, axborot jamiyati, fuqarolik jamiyati, siyosiy madaniyat, siyosiy yetuk shaxs.

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy madaniyat va ommaviy axborot vositalarini tadqiq etishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy madaniyatning jamiyat siyosiy jarayonlaridagi o'rni, fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati hamda ommaviy axborot vositalarining siyosiy kommunikatsiya tizimidagi roli yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida siyosiy axborot tarqatish jarayonida yuzaga kelayotgan yangi shakllar va usullar tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy axborot makonida siyosiy madaniyatni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ta'siri, siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlari hamda axborot xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy kommunikatsiya vositalari siyosiy madaniyatni rivojlantirish, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish va demokratik jarayonlarni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

**РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ
ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

Даврон Собирович Муитов

Исполняющий обязанности профессора кафедры политических наук

Кандидат политических наук

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Иродахон Ярмухамедова

Старший преподаватель кафедры политических наук

Доктор философии (PhD) по политическим наукам

Узбекский государственный университет мировых языков

Email: Irodaxon1440@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: политическая культура информационное общество, политически зрелая личность.</p>	<p>СМИ, личности, гражданское общество, политическая культура,</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируются современные тенденции в изучении политической культуры и средств массовой информации. В исследовании освещается роль политической культуры в политических процессах общества, важность формирования политического сознания граждан и роль СМИ в системе политической коммуникации. Также анализируются новые формы и методы, возникающие в процессе распространения политической информации в результате развития цифровых технологий, интернета и социальных сетей. Особое внимание уделяется влиянию СМИ на формирование политической культуры в современном информационном пространстве, процессам политической социализации и вопросам информационной безопасности. По результатам исследования, современные средства коммуникации являются важным фактором развития политической культуры, повышения политической активности граждан и укрепления демократических процессов.</p>
---	---	--

Kirish. Jurnalistika bu siyosiy madaniyatli jamiyatning ko‘zgusi va vijdoni bo‘lishi kerak degan gaplar anchadan beri tanish va ma’lum. Zotan ommaviy axborot vositalari bugungi kunda internet tarmoqlari, bosma matbuot, radio, televideniye, kino, ovoz yozish madaniyati orqali siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazib borish yo‘lida sobitqadam. Ayniqsa so‘nggi o‘n yillikda kommunikatsiya vositalaridagi inqilobiy texnologik o‘zgarishlar jamoatchilikning siyosiy ongiga kuchli ta’sir etish imkoniyatlarini kuchaytirdi. Shu tariqa siyosiy-mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning manbai bo‘lmish ommaviy axborot vositalari hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi. Ijtimoiy munosabatlarda ularning ahamiyati – bu jamiyat siyosiy madaniyatini o‘stirish va shu orqali kuchli jamoatchilik fikrini shakllantirish vazifalaridan kelib chiqmoqda[1:152].

Jumladan, axboriy jamiyatning yutuqlari haqida gap so‘zlar bugungi kunda yangilik emas. Aytmoqchimizki u haqda dastlabki tasavvurlarni bergan kunchiqar mamlakat olimining (Yu.Xayashi) axborot jamiyati istilohini kiritganiga ham yarim asrdan oshgan[2]. Bugun fanga, jamiyat siyosiy madaniyatiga xizmat qiluvchi axborotning qudratini o‘z vaqtida ilmiy ilg‘agan

yaponlar butun bo'y basti bilan dunyoni lol qoldirishda davom etmoqda. Harqalay axborot jamiyatiga bo'lgan bunday munosabat yapon mo'jizasining ma'naviy-madaniy asosi tariqasida e'tirof etilmoqda.

Asosiy qism. Bugun axboratlashgan jamiyat – axborotni yuksak qadriyat sifatida baholaydigan, rivojlangan axborot texnologiyalariga ega bo'lgan, axborot olish borasida teng imkoniyatlar yaratilgan jamiyatdir. Mazkur qarashlar ilmiy jamoatchilikda “yuksak axboriy madaniyatli”, “tig'iz axborotlashgan jamiyat”, “axborot jamiyati” tushunchalari bilan ham keng targ'ib qilinadi. Xullas bugun jahon hamjamiyatida har qanday jamiyatning rivojlanish sur'ati va yo'nalishini belgilab beruvchi axborotni barcha ne'matlardan ustun deb tan olish yo'liga o'tildi. Uning shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirishdagi rolga yuqori baho berilmoqda. Demak shu tariqa shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish – ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalari bilan sintezlashib bormoqda[2].

Yuqorida ta'kidlanganidek, ayni axborot kommunikatsiya inqilobi kishilar o'rtasidagi demokratik munosabatlarda axborot omilining yetakchilik qilishiga, uni hal qiluvchi kuchga aylanishiga ta'sirini o'tkazdi. Chunki axborotlashgan jamiyatda milliy qiymatga ega bo'lgan, ayni fanga, binobarin, jamiyatga yangilikni ochishga xizmat qiladigan axborotgina qadr topadi, yalpi iqtisodiy tizimda axborot-kommunikatsiya sohasining ulushi salmoqli bo'ladi, siyosiy jamiyat va siyosiy institutlar siyosiy madaniyatida esa axborotning demokratik tamoyillar ustuvorligini ta'minlashi kutiladi. Axborotlashgan jamiyatda ayni ommaviy axborot vositalari tufayli erkin axborot oqimi tamoyili amal qiladi, davlat chegaralaridan qat'iy nazar, axborotning global tarzda to'siqlarsiz tarqalishiga erishiladi.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi buni isbotlab turibdi. Ayniqsa yuksak ijtimoiy davlatlar qatoridan o'rin olgan skandinav davlatlar buning yorqin misoli bo'la oladi. OAV institutlari mavqei bilan bog'liq bunday sharoitlar tufayli asosan yevropalik shved, norveg, fin, chex, nemis kabi fukarolik jamiyatlarida siyosiy madaniyat rivojlanishining imkoniyatlari kuchli bo'lmoqda.

Bugun rivojlangan davlatlarning har qanday fuqarosi tele-radio kanallar, internet tarmog'i va boshqa axborot manbalaridan turli xil axborotni olish huquqi va imkoniyatiga ega. Hattoki ommaviy axborot vositalaridan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosatga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilish imkoniyatidan foydalanish yo'liga o'tilgan. Albatta shunday paytda u siyosatning muhim bir elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Istiqbolda shu tariqa OAV uzoq vaqt turli xil siyosiy maqsadlarni ilgari surishda muhim ishtirokchi bo'lishi kutilmoqda. Bu zamonaviy siyosatshunoslik oldida ma'rifatli jamiyatga mos keluvchi siyosiy madaniyatning yangi mezonlarini ishlab chiqish vazifasini ham

dolzarblashtiradi. Bu holatda ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa televideniyeining siyosiy jarayonlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazishini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi[3:187].

Televideniye bugungi zamonaviy jamiyatda siyosiy madadni ta'minlash uchun asosiy va qudratli vosita vazifasini o'tamoqda, ular siyosiy kompaniyalarni tashkil qiluvchi quyidagi sifatlarga ega, ya'ni :

- siyosiy ma'lumotlarni zudlik bilan cheklanmagan hajmda yetkaza olish qobiliyati;

- siyosiy ma'lumotni har qanday insonga mos ravishda, uning uyiga hech qanday maxsus va ko'zlangan sarf harajatlarsiz o'zlashtirishni talab qilmaydigan tezkor shakliga ega[4:74].

Bugungi siyosiy jarayonning asosiy ishtirokchilari siyosiy ongining shakllanishida televideniyeining yetakchi roli – audivizion harakterga ega bo'luvchi zamonaviy inson madaniyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Televideniye ma'lumotlarning asosiy qismini audivizual funksiyasi orqali qabul qilishi bilan jamiyat siyosiy dunyoqarashida yetakchi rol o'ynamoqda. Bularning barchasi axboriy tizimlar o'rtasida shaxs siyosiy madaniyatining yuksaltirish jarayonlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ichidagi ommaviy axborot vositalaridan televideniyeining ahamiyatini alohida kuchayib borishini tasdiqlaydi.

Qolaversa, zamonaviy siyosiy psixologiya zamonaviy jamiyatda ratsional yondoshuvlar emas, balki "obraz" ("imidj") yorqinligi asosiy rol o'ynashini isbotladi. Bugun jamiyat aksariyat qismining siyosiy, mafkuraviy va geosiyosiy qarashlarining telekommunikatsiya yordamida shakllantirishga zo'r berilayotganligi bejiz emas. Har holda media "obraz" etnik, madaniy, mafkuraviy, siyosiy yondoshuvlar asosidagi sintez mahsuli deya e'tirof etilmoqda. O'z navbatida, jamiyatdagi ma'lumotlarning turfa xilligi ham ularning siyosiy hayotga singib ketishiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlarning mavjudligi bilan chambarchas bog'langan. Bunday paytda haqqoniylikka mos keluvchi hamda turfa xil ma'lumotlar shaxsning siyosiy munosabatlar sohasidagi faoliyatining faollashuviga kuchli ta'sir o'tkazadi, odamlarning mustaqillik darajasini o'stiradi. Shu bilan birga, zamonaviy jurnalistikada texnikaning mukammallashib borishi ma'lumot tarqatishning tezligini mutlaq oshirdi, qisqa muddatda odamlarning yirik ommasini qamrab olish qobiliyatini kuchaytirdi[3:180].

Shunday qilib axborot to'lqinlarini boshqarish borgan sayin virtual reallik shakliga ega siyosiy ong, siyosiy tafakkur maydonini yuzaga keltirmoqda. U siyosiy madaniyatlarning transformatsiyasi degan ilmiy mavzuni dolzarblatirib bermoqda. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi o'tmishda hatto geosiyosatni nazorat qilib borgan eski xalqaro institutlarning parchalanishiga olib kelmoqda, yangidan-yangi majaro va qarama-qarshiliklarning

avj olishiga o'z ta'sirini o'tkazib bormoqda. Siyosiy vaqtning tezligi degan tushuncha paydo bo'ldi. Virtual dunyoni o'zlashtirish ayni siyosiy vaqtning tezligidan kelib chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib fuqorolik jamiyatlarida siyosiy madaniyat rivojlanishining imkoniyatlari qanday namoyon bo'ladi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Tadqiqotchilar bu borada quyidagilar:

- hokimiyat va mas'uliyat o'rtasida muvozanatni saqlay olish;
- hal qilinmay qolgan muhim siyosiy masalalar pirovard natijada demokratik siyosiy tizimda beqarorlikni keltirib chiqarishini tushunish imkoniga egaligi;
- siyosiy qarorlarga asosli ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini yuqori baholash bilan real ta'sir ko'rsatish darajasi bilan;
- fuqarolar siyosiy hayotda ishtirok etishi shartligini yalpi e'tirof etishning tarqalganlik darajasi bilan;
- siyosiy ishtirokning real ahamiyati va hajmi bilan;
- mamlakatda faol fuqaro siyosiy jarayonning doimiy ishtirokchisi hisoblanmasligi, siyosiy guruhlarda kam ishtirok etishi, ammo shu bilan bir qatorda asosli ta'sir ko'rsatish salohiyati bilan;
- zarur holda o'z ijtimoiy imkoniyatlarini siyosiy maqsadlar yo'lida safarbar etishi ehtimoli bilan;
- fuqaro siyosiy aloqalarini yuksak saviyada saqlashga, biron-bir tashkilotga a'zo bo'lishga va norasmiy siyosiy munozaralarda ishtirok etishga ko'proq moyilligi bilan;
- hayrixoh tarzda ishtirok etish madaniyatining mavjudligi bilan;
- ishtirokchilik siyosiy madaniyatida siyosiy madaniyat va siyosiy tuzilma o'zaro mutanosiblikda bo'lishligi va bir-biriga mos kelishligi imkoniyatlari bilan bog'lashmoqda[5].

Shu bilan bir qatorda, afsuski zamonaviy geosiyosiy raqobat demokratik axboratlashgan jamiyatning global xususiyatini o'zgacha ifodalab, ayni katta geosiyosat tufayli rivojlanayotgan davlatlarga kelayotgan axborot oqimi maqsadli tus oldira boshladi. Yangi mustaqil davlat fuqorolari OAV ning mafkuraviy ta'siri ostida qolish xavfi o'ta keskinlashib ketdi. Fuqorolik jamiyatidan oddiy olomonga aylanish xech gap bo'lmay qoldi. Bu kelgusida axboriy jamiyatning siyosiy madaniyati qanday ko'rinishga ega bo'lishi kutiladi? Bunday jamiyat taraqqiyotida siyosiy radikal g'oyalarning imkoniyatlari darajasi qanday bo'ladi? Xalqaro siyosatda misqollab yig'ilgan o'zaro hurmat madaniyati, o'zaro ishonch g'oyalarining kelajagi qanday bo'ladi? degan savollarni jiddiylashtirib berdi[6].

Kutilmaganda barqaror demokratik o'nglanish yo'liga o'tayotgan davlatlarda siyosiy madaniyatning klassik ma'nodagi funksiyalari buzilib ketdi. Demak bu yog'iga qal'ani ichidan

olish degani ayni shunday beboshlik va erkinlik hisobiga amalga oshish mumkinligi ko'pchilik siyosatchilarga kunday ravshan bo'lib qolgan edi. Vaholanki fursat poylab yurganlarga parlament institutining bu darajadagi o'ta ketgan beboshligi to'poriligi esh bo'ldi. Yana bir tomoni bunday parlamentlardagi kabi ishonchsizlik, o'zaro tushunish falsafasining cheklanganligi odamlarni davlatning parlament institutiga munosabatini sovuqlashtirib qo'yadi. Natijada parlamentarizmning bunday salbiy qiyofasi mamlakat hududlarida faqat tarafkashlik siyosatiga xizmat qila boshlaydi, xalq hokimiyatining deputatlik minbari faqat jangari filmlar uchun o'tkir syujet vazifasini o'tashi mumkin bo'lib qoldi xolos. Qonun ijodkorligi, parlament nazorati tamoyillari bilan birgalikda siyosiy madaniyat tamoyillari ham o'zining kuchini deyarli yo'qotdi. Birqator demokratik o'nglanish yo'liga o'tganmiz degan davlatlarda populizmga berilish, siyosiy safсата natijasida siyosiy radikalizmga keng yo'l ochilib ketdi. Siyosiy madaniyatning Konsensus, kompromisga kelish masalalari deyarli yo'qqa chiqarildi.

Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirishda salbiy hodisalar va ularni bartaraf etishda gazeta, radio va televideniyeining rolini qanday tushunamiz?

Aslida savolga siyosiy yetuklik va barqarorlikni rad etuvchi siyosiy radikalizm hali hech qachon barqaror, ijobiy natijalarni bermaganligidan munosabat bildirish joiz. Masalan hattoki inson huquqlariga to'liq rioya qilingan va xalqi farovon hayot kechirayotgan davlatlarda seperatizmning paydo bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Siyosiy amaliyot tajribasi esa uning tahdidi mavjudligini tasdiqlamoqda, bilaks bunday holatlar muayyaan siyosiy maqsadlarga erishishga imkoniyat yaratmoqda. Oldin yirik bo'lgan mamlakatlar qancha mayda bo'laklarga bo'linib barpo etilgan bo'lsa, dunyoni boshqarish shuncha oson bo'lardi. So'ngi vaqtlarda OAV da ba'zan jamiyatdagi turli fikr va qarashlarning qarama-qarshiliklari shiddat bilan ko'payib bormoqda. Bu esa axborotlashgan jamiyatning oziga xos xususiyati sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatda siyosiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida ommaviy axborot vositalari muhim va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va global media makonining kengayishi siyosiy axborot tarqalish jarayonini tezlashtirib, fuqarolarning siyosiy ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki jamiyatda siyosiy qarashlar, ijtimoiy munosabatlar va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, axborot oqimining keskin ortishi va global axborot maydonidagi raqobat ayrim hollarda manipulyatsiya, mafkuraviy ta'sir va siyosiy radikalizmning kuchayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida siyosiy madaniyatni yuksaltirish,

fuqarolarning media savodxonligini oshirish va ommaviy axborot vositalarining mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, gazeta, radio, televideniye va zamonaviy raqamli media vositalari jamiyatda haqqoniy axborotni tarqatish, siyosiy jarayonlarni xolis yoritish hamda siyosiy yetuk shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Demak, axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy madaniyatning barqaror rivojlanishi ommaviy axborot vositalarining demokratik tamoyillarga asoslangan faoliyati, erkin axborot almashinuvi va fuqarolarning faol siyosiy ishtiroki bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muminov F., Toshpulotova N. (2019). Jurnalistik sotsiologiyasi va psixologiyasi. T: O'zbekiston. 191 b.
2. MUITOV, D. (2023). Axborot asri siyosiy texnologiyalari va propaganda. O'zbekiston sud ekspertizasi, 1-son. 52-57.
3. Алимов Б.С. Медиа муҳитда Ўзбекистон имижги. Монография. – Тошкент: Та'lim-media, 2020. – 214 б.
4. MUITOV, D. (2023). Siyosiy madaniyat. O'quv qo'llanma. T: City of book. 102 b.
5. Саидов, С. (2022). Феномен «мягкой силы» и некоторые аспекты во внешней политике. Вестник высшей школы. Международные отношения, 4. 194-108.
6. Do'stmuhammad, X. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. –T.: "Yangi asr avlodi", 2013.